

ZARRALAR KOSMOLOGIYASINING STANDART MODELI VA UNING HAL ETILMAGAN MUAMMOLARI

A.M.Otajanov

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs magistranti,

otajonovasadbek20@gmail.com

Zamonaviy kosmologiya fani Katta portlash nazariyasiga asoslangan holda Olamning ilk daqiqalarini, uning tarkibiy qismlarini va rivojlanishini tushuntirib berishga urinadi. Bu jarayonda zarralar fizikasi asosiy o‘rin tutadi. Zarralar kosmologiyasi esa ushbu ikki sohani — kvant fizikasi va kosmologiyani — birlashtiruvchi fan sifatida shakllandi. Aynan shu birlashuv asosida Standart Model deb ataluvchi nazariya yuzaga keldi. Bu model elementar zarrachalar va ularning o‘zaro ta’sir kuchlarini to‘liq ifodalaydi: elektromagnit, kuchli va zaif yadroviy o‘zaro ta’sirlar [1].

Katta portlashdan keyingi dastlabki daqiqalarda kvarklar, leptonlar va neytrinolar kabi zarrachalar paydo bo‘lgan va koinot evolyutsiyasining ilk bosqichlarini shakllantirgan. Mazkur davrda sodir bo‘lgan nukleositez, inflyatsiya jarayonlari, neytrino dekuplyatsiyasi kabi hodisalar standart model bilan tushuntiriladi. Biroq bu modelning chegaralari ham mavjud. Eng avvalo, tortishish kuchi — ya’ni gravitatsiya — standart modelda yo‘q. Bu esa umumiy nazariy modelga ehtiyojni bildiradi [2].

Yana bir jiddiy muammo — qorong‘i materiya va qorong‘i energiyaning tabiat. Zamonaviy astronomik kuzatuvlar (Planck, WMAP, SDSS) asosida koinot tarkibining atigi 4–5% i oddiy moddalardan iborat bo‘lib, qolgan 95% qismi qorong‘i materiya va qorong‘i energiya tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Standart model bu komponentlarning tabiatini haqidada hech qanday izoh bermaydi [3]. Bu esa yangi gipoteza va nazariyalarni ilgari surishni talab qiladi. Neytrinolarning massasining mavjudligi ham standart model doirasidan chiqadi, chunki dastlab bu zarrachalar massaga ega emas deb qaralgan edi [4].

Yuqoridagi sabablar bilan ilmiy jamoalar supersimmetriya, GUT (yagona kuch nazariyalari), kvant gravitatsiyasi, struna nazariyalari kabi yangi yondashuvlarga murojaat qilishmoqda. Ushbu nazariyalar orqali mavjud kuchlarni birlashtirish, neytrinolar massasini izohlash, qorong‘i materianing tabiati haqida gipotezalar ilgari surish imkoniyati mavjud. Eksperimental darajada esa CERNdagi LHC (Katta Hadron Kollayderi), IceCube, DarkSide kabi loyihalar ushbu nazariyalarning asoslanishini amaliy ravishda sinab ko‘rmoqda [5].

Zarralar kosmologiyasi shuningdek inflyatsiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq. Inflyatsiya — bu koinotning 10^{-36} soniyadan 10^{-32} soniyagacha bo‘lgan vaqtda favqulodda tez kengayish hodisasi bo‘lib, bugungi kunda kuzatilayotgan izotropiya va gomogeniya holatini tushuntirishga yordam beradi. Inflyatsiyaning turli modellari (Guth, Linde, Starobinsky) mavjud bo‘lib, ularning barchasi standart modelga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan, biroq uning uzviy davomi sifatida qaraladi [6].

Zamonaviy kosmologiya va zarralar fizikasi integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan zarralar kosmologiyasi fani, koinotning ilk bosqichlaridan to hozirgi holatiga qadar bo‘lgan jarayonlarni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Standart Model nazariyasi elementar zarrachalar va ularning o‘zaro ta’sirlarini aniq ifodalaydi va Katta portlashdan keyingi fizik jarayonlarni muvaffaqiyatli izohlab beradi.

Biroq, zamonaviy eksperimental va nazariy natijalar, xususan qorong‘i materiya, qorong‘i energiya, neytrinolar massasining mavjudligi va inflyatsiya kabi konsepsiylar, Standart Modeldan tashqariga chiqadigan yondashuvlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shu sababli, supersimmetriya, GUT, struna nazariyasi, kvant gravitatsiyasi kabi yangi nazariyalar jadal rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar XXI asr fundamental fizikasining asosiy masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kolb, E. W., & Turner, M. S. (1990). The Early Universe. Addison-Wesley Publishing.
2. Liddle, A. R., & Lyth, D. H. (2000). Cosmological Inflation and Large-Scale Structure. Cambridge University Press.

3. Planck Collaboration. (2018). Planck 2018 results. *Astronomy & Astrophysics*, 641, A6.
4. CERN Official Website – Large Hadron Collider (LHC) Experiments.
<https://home.cern>
5. Dine, M. (2007). *Supersymmetry and String Theory: Beyond the Standard Model*. Cambridge University Press.
6. Mukhanov, V. (2005). *Physical Foundations of Cosmology*. Cambridge University Press.